

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJning 2023-yil 7 oyligida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va stajirovka bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

MA’LUMOT

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ tomonidan 2023-yilda 935 nafar ishchi, muhandis-texnik, mutaxassis va rahbar xodimlarni malakasini oshirish, tayyorlash, qayta tayyorlash va stajirovkaga yuborish rejalashtirilgan. Ushbu maqsadlarga jami 512.0 (512 000 000) mln. so‘m mablag‘ sarflanishi rejalashtirilgan.

Shu jumladan:

- Respublika o‘quv markazlarida – 439 nafar;
- Jamiyat o‘quv markazida – 476 nafar;
- Respublika oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash - 10 nafar;
- Xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash - 1 nafar;
- Xorijiy davlatlarda xodimlarni malakasini oshirish (stajirovka) -10 nafar;

2023-yil 7 oyligida amalda.

Jamiyat kadrlar boshqarmasi tarkibidagi o‘quv markazida 212 nafar xodimlar malakasini oshirgan. Ushbu malaka oshirish kurslariga 15.5 (15 500 000) mln. so‘m mablag‘ sarflangan.

Respublika va xorijiy o‘quv markazlari hamda ishlab chiqarish korxonalarida 111 nafar rahbar, mutaxassis va ishchi xodimlar malakasini oshirgan va stajirovka o‘tagan. Ushbu maqsadlarga 184,6 (184 595 672) mln. so‘m mablag‘ sarflangan.

1 nafar xodim O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 4 oylik qayta tayyorlash o‘quv kursini tamomlagan.

Shuningdek, respublika oliy ta‘lim muassasalarida 3 nafar xodim, 6 nafar talaba jamiyat hisobidan tahsil olmoqda. 1 nafar talaba xorijiy oliy ta‘lim muassasasini tamomlagan.

- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistraturasida 1 nafar xodim;
- O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistraturasida sirtqi ta‘lim bo‘yicha 1 nafar xodim;
- I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filialida sirtqi ta‘lim bo‘yicha 1 nafar xodim;
- I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filialida 6 nafar talaba;

- I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetida 1 nafar talaba.

Ushbu tadbirlar uchun 92.9 (92 896 180) mln. so'm mablag' sarflangan.

Malaka oshirish (stajirovka)

-9 nafar xodimlar Rossiya federasiyasi "Uralkaliy" AJda malaka (stajirovka) oshirgan.

- 2 nafar xodimlar "O'z kimyosanoat" AJda malaka (stajirovka) oshirgan.

- 3 nafar xodimlar "Maksam-Chirchiq" AJda malaka (stajirovka) oshirgan.

Bundan tashqari 2022-2023 o'quv yilida D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filialiga sirtqi ta'lim bo'yicha qabul qilingan 14 nafar xodim o'z mablag'lari hisobidan tahsil olishmoqda.

Respublika va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sirtqi ta'lim bo'yicha jamiyatning 58 nafar xodimlari o'z mablag'lari hisobidan tahsil olishmoqda.

Jamiyatga birlashtirilgan Dehqonobod kimyo sanoati kollejida hozirgi vaqtda 14 nafar xodim dual ta'lim bo'yicha va 15 nafar xodim sirtqi ta'lim bo'yicha tahsil olishmoqda.

Ustoz-shogird an'anasi bo'yicha kasbini o'zgartirgan 11 nafar xodimlarga 6 nafar mutaxassis xodimlar birlashtirilgan hamda rag'batlantirilgan.

Shuningdek, ishga qabul qilingan 9 nafar xodimlarga 4 nafar mutaxassis xodimlar birlashtirilgan hamda rag'batlantirilgan.

AMALIYOTLAR

Oliy ta'lim muassasalari

Magistratura. Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutining 14 nafar magistraturada tahsil olayotgan talabalarining ilmiy amaliyotlari tashkil etilgan hamda jamiyatning 3 nafar malakali mutaxassis xodimlari ustoz sifatida birlashtirilgan.

Bakalavr. (4 kurs) Toshkent kimyo-texnologiya instituti (5), Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (28), Termiz muhandislik-texnologiya instituti (16), Toshkent davlat texnika universiteti (8), Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali (2), Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti(1), D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali (1) nafar talabalarining bitiruv oldi amaliyoti tashkil etilgan.

Bakalavr. (3 kurs) Toshkent kimyo-texnologiya instituti (4), Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (12), Termiz muhandislik-texnologiya instituti (25), Toshkent davlat texnika universiteti (12), Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali (28), D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti

Toshkent shahridagi filiali (2) nafar talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti tashkil etilgan.

Bakalavr. (2 kurs) Toshkent kimyo-texnologiya instituti (4), Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (73), D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali (1), Toshkent davlat texnika universiteti (13) nafar talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti tashkil etilgan.

Bakalavr. (1 kurs) Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (1), D.I.Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti Toshkent shahridagi filiali (3) nafar talabalarining ishlab chiqarish amaliyoti tashkil etilgan.

252 nafar talabalarga jamiyatning 47 nafar malakali mutaxassisleri ustoz sifatida birlashtirilgan.

Professional ta'lim muassasalari talabalarining amaliyoti

Dehqonobod kimyo sanoati kolleji (33), G'uzor energetika sanoat texnikumi (13), Dehqonobod tuman 1-son kasb-hunar maktabi (27) nafar talabalarining amaliyoti tashkil etilgan.

73 nafar talabalarga jamiyatning 7 nafar malakali mutaxassisleri ustoz sifatida birlashtirilgan.

O'qituvchilar stajirovkasi.

2023 yil 1 choragida Toshkent kimyo-texnologiya institutining 1 nafar, Dehqonobod kimyo sanoati kollejining 1 nafar o'qituvchilari stajirovkasi tashkil etilgan.